

OILA MUSTAHKAMLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOYPSIXOLOGIK OMILLARI

Tojiyev Sanjar
Inomov Samandar

Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19387763>

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila mustahkamligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari yoritiladi. Psixologlarning mustahkam, baxtli nikohni tashkil etish borasidagi qarashlari ham keltirib o'tilgan.

Tayanch so'z va iboralar: baxt, nikoh, omil, muloqot, juftlik, pozitiv munosabat, empatiya, agressiya, atraksiya.

Аннотация. В данной статье будут рассмотрены социально-психологические факторы обеспечения прочности семьи. Также приводятся взгляды психологов на организацию крепкого, счастливого брака.

Ключевые слова: счастье, брак, фактор, общение, пара, позитивное отношение, сочувствие, агрессия, влечение.

Annotation. This article will consider the socio-psychological factors of ensuring the strength of the family. The views of psychologists on the organization of a strong, happy marriage are also given.

Keywords: happiness, marriage, factor, communication, couple, positive attitude, empathy, aggression, attraction.

Fuqarolik jamiyatning eng muhim bo'g'ini hisoblangan oilaning farovonligi jamiyatning farovonligini, uning mustahkamligi esa, davlat va jamiyatning barqaror ravnaq topishini taminlaydi. Bejizga dono xalqimiz "Oila ahil bo'lsa, batx-omad o'z oyog'i bilan kelar" deb takidlamaydi. O'tgan 2023 – yilda mamlakatimizda nikohdan ajralishlar soni – 49,2 mingtani tashkil etgan. Ajralishlar soni esa 2022-yilga nisbatan 1456 ta ko'p. Eng ko'p ajralishlar Farg'ona viloyati, Toshkent shahri va Samarqand viloyatida kuzatilgan. Bundan xulosa sifatida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oila mustahkamligini taminlovchi omillar va muammolarni tadqiq etishni taqazo etadi. Oila mustahkamligini taminlashning bir qator omillari mavjud bo'lib, har bir fan sohasi o'z jihatidan kelib chiqib asoslarini ilgari suradi. Umumiy jihatdan hisobga olganimizda juftlikdagi ayol bilan erkak (yoki er bilan xotin deb ham keltirishimiz mumkin) o'rtasidagi munosabatlarning quyidagi o'ziga xos jihatlari mavjud:

- uzoq muddatga mo'ljallangan doimiy muloqot;
- munosabatlarning asosan diada shaklida ro'y berishi;
- muloqot va munosabatdan qoniqish – nikohdan qoniqish hosil etish uchun omil hisoblanadi.

Olimlardan A.Antonov, E.Shostro, Y.Gozman, K.Xorni, Y.Dubrova, M.Davletshin, G'. Shoumarov, E.G'oziyev, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog'inov, G.Yadgarova, M.Salayeva, D.Xoliqov, V.Karimova va F.Akramovalar eng mustahkam nikohga sabab bo'lgan munosabatlarda ikkala tomon ham shaxs sifatida takomillashi, o'zaro bir-birini tushunishi, mehr, bir-biriga yordam berish, empatiyani keltirib o'tishadi. Shu jihat qiziqki, nikoh qurushni o'z oldiga maqsad qilib olgan juftliklar nikoh va oila bo'yicha xalq orasida shakllangan tasavvurlarga suyanadi. Bu esa yosh nikohdan o'tgan juftliklar oila tushunchasiga oid qat'iy bo'lgan normalar asosida

yashashga majbur bo'lishadi. Shuni hisobga olish muhimki, har bir juftlikning faqat o'zlariga taluqli bo'lgan sirlari bo'lishi bu tabiiy holat. Buni oilaning qolgan a'zolari ham bilishi noo'rindir.

O'z tadqiqotlarida E.Shostro kelin va kuyov o'rtasidagi pozitiv munosabatlar bir qancha ko'rinishlarini keltirib o'tgan:

Do'stlik – juftlikdagi eng muhim xususiyat, oila mustahkamligini taminlovchi asosiy omildir. Oilaviy munosabatlardagi do'stlik o'ziga xoslik va individuallikni tan olishni nazarda tutuvchi hissiyotdir.

O'zaro g'amxo'lik qilish hissi – er va xotinning munosabatlaridagi samimiyatda namoyon bo'ladi. Asosiy jihati boshqalarda bunga o'xshash yaqin munosabat hissini his etmaydi.

Bir-biriga qattiq bog'lanib qolish – bunday romantik hislar asosan yangi juftliklarda namoyon bo'lishi, bu nikoh mustahkamligini taminlovchi hissiyot ekani tarflanadi.

Empatiya – kuyovning kelinga, yoki aksincha kelinning kuyovga doimiy g'amxorligi, doim uni tushunishga harakat etishida namoyon bo'ladi.

Atraksiya – juftlikning bir-biriga intilishi, ijobiy munosabatdagi hislarni qabul qilishda namoyon bo'ladi. Nikohda atraksiyaga sabab bo'luvchi omillar sifatida tashqi ko'rinish, yoqimtoylik va samimiylilik deb keltirilgan.

O'zini anglash, o'zini sevishtirish – bunda juftlik o'z sherigining avfzal jihatlarini anglay olish hissiyoti sifatida keltiriladi.

Shostroining fikriga ko'ra oilada konfliktlarning bo'lishi tabiiy holat bo'lib, er-xotinning bir-birilarini ranjitishlariga manaviy haqliy ekanligini, juftliklarning o'z istak-xohishlarini yetkazishlarida yordam berishini takidlaydi, faqat sharti ziddiyat yakuni yaxshilik bilan yakunlanishi zarur. Bunda Shostro konstruktiv nizolarni nazarda tutgani oydinlashadi.

Uning fikricha nikoh mustahkamligini emiruvchi bir qator salbiy his-tuyg'ular ham mavjud:

Befarqlik – oilaviy munosabatlarni izdan chiqarishda, aloqalarni yomonlashishini tezlashtiruvchi his. Odatda oilaviy munosabatlarda ayollar o'z turmush o'rtoqlarining befarqliklaridan aziyat chekishadi.

Arazlash – odatda turmush o'rtog'idan o'ch olish maqsadida namoyon etiluvchi hissiy holat.

Ayibdorlik - muayyan jarayon, holat uchun o'zini sababchi sifatida ko'rish holati. Bunda ayibdorlik holati shaxsda depressiyaning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridan keltirilgan fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, oila mustahkamligini taminlovchi va unga zarar keltiruvchi omillarni bilishi, unga qarshi kurashish ko'nikmalarini shakllantirishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://daryo.uz/2024/02/09/ozbekistondagi-jami-nikohlar-va-nikohdanajralishlar-soni-malum-boldi>
2. Karimova V. - “Oila psixologiyasi” / T.,: Fan va texnologiya, 2016. 74 b.
3. Shoumarov G.B. OILA PSIXOLOGIYASI. T-“Sharq”, 2018 y.
4. Stankov A.G. Что надо знать до брака. – Питер 2019 г. 35 стр.